

RADIATSIYAVIY AVARIYALARNI BARTARAF ETISH BO'YICHA HARAKATLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Dotsent Boymirzayev A.E.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi instituti

Annotatsiya: Radiatsiyaviy xavfli obyektlarda, atom energetika qurilmalarida, bojxona maskanlarida, yadroviy chiqindi va radioaktiv moddalar omborxonalarida sodir bo'ladigan avariya obyekti ishchi xodimlari va obyekt atrofida yashaydigan aholining sog'ligi va hayotiga jiddiy xavf tug'diradi.

Kalit suzi: nazorat, Radiatsiya, avariya, bulut, masofa, ifloslanish

Abstract: Accidents that occur at radiation-hazardous facilities, nuclear power plants, customs facilities, nuclear waste and radioactive material storage facilities pose a serious threat to the health and life of facility workers and residents living around the facility.

Key words: control, radiation, accident, cloud, distance, pollution

Аннотация: Аварии, происходящие на радиационно-опасных объектах, атомных электростанциях, таможенных объектах, хранилищах ядерных отходов и радиоактивных материалов, представляют серьезную угрозу здоровью и жизни работников объектов и жителей, проживающих вокруг объекта.

Ключевые слова: контроль, радиация, авария, облако, расстояние, загрязнение.

Radiatsiyaviy avariya — uskuna nosozligi, xodimlar (personal)ning xatti-harakatlari yoki harakatsizligi, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar sababli kelib chiqqan, fuqarolarning belgilangan meyorlardan ortiqcha nurlanish olishiga yoki atrof muhitning radioaktiv ifloslanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan ionlashtiruvchi nurlanish manbai ustidan boshqaruv (nazorat)ning izdan chiqishi; yadro energetika qurilmasi, asbob va qurilmalarining foydalanish qoidalarining buzilishi oqibatida radioaktiv modda yoki ionlashtiruvchi nurlanishning loyihada mo'ljallangan chegaralaridan tashqariga chiqishi.

Radiatsiyaviy avariya ishchi xodimlar, shu jumladan obyekt atrofida yashaydigan aholining nurlanish olishiga yoki atrof-muhitning radioaktiv ifloslanishiga olib keladi. Bojxona maskanlarida bojxona maskani xodimlari, ichki ishlar, chegara qo'shinlari xodimlari va chegaradan o'tayotgan fuqarolarni zararlashi mumkin.

Radiatsiyaviy avariya turli ko'rinishlarda, shu jumladan, yong'in va portlashlar bilan ham sodir bo'lishi mumkin. Bunday avariya natijasida atmosferaga radioaktiv moddalar va ular aralashmasidan iborat chang fontan bo'lib otilib chiqadi va radioaktiv bulut hosil qilib, shamol ta'sirida uzoq masofalarga yuzlab kilometrga tarqaladi. Bulutlardan to'kilgan radioaktiv moddalar radioaktiv ifloslanish zonasini hosil qiladi. Bunday hududlarda ishlash va yashash hayot uchun xavfli hisoblanadi.

Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari bilan ifloslanishning xususiyatlaridan biri shuki, uni maxsus o'lchov asboblari aniqlab bo'lmaydi, chunki ionlashtiruvchi nurlarning rangi, ta'mi va hidi bo'lmaydi, inson sezgi organlari aniqlay olmaydi.

Radioaktiv nurlanish har xil qalinlikdagi materiallardan o'tib, odam hayoti uchun muhim bo'lgan biologik jarayonlarning buzilishiga olib keladi. Odam radiatsiya ta'siri vaqtida hech qanday tan jarohatlari olmaydi va hech qanday og'riq sezmaydi, lekin nurlanish natijasida keyinchalik nurlanish kasalligiga chalinishi mumkin.

Radioaktiv ifloslanish va radiatsiyaviy ta’sir – radiatsiyaviy avariylarning eng asosiy omillaridir.

Radiatsiyaviy nurlanish tashqi va ichkilarga bo‘linadi.

Tashqi nurlanishda ionlashtiruvchi nurlanish manbai tirik organizmdan tashqarida bo‘ladi. Bu holda zararlangan hududni tark etish yoki biron panagohga yashirinish kerak. Tashqi nurlanishning asosiy qismi bino devorlariga yoki kiyimga singib ketadi.

Ichki nurlanishda radioaktiv moddalar chang, havo, ovqat va suv orqali organizmning ichiga o‘tadi. Ichki nurlanish - radioaktiv ifloslanish hududida bo‘lgan odamlarning sog‘ligi va hayoti uchun eng asosiy xavf hisoblanadi. Odam organizmida ba’zi radioaktiv moddalar suyaklarda, ba’zilar esa jigar, buyrak yoki taloqda to‘planadi, ba’zi radioaktiv moddalar butun organizm bo‘ylab tarqaladi. Radioaktiv yod asosan organizm faoliyatini tartibga soluvchi gormonlar ishlab chiqaradigan organ - qalqonsimon bezda to‘planadi.

Odam organizmida 25mg.gacha yod bo‘ladi. Yod qalqonsimon bezning faoliyati uchun kerak, ammo unda radioaktiv yodning to‘planishi bezning ish faoliyatini buzadi. Bunday xavfdan saqlanish uchun avariya keyingi birinchi soatlarda qalqonsimon bezni oddiy yod bilan to‘yintirish kerak va shunda u radioaktiv yodni qabul qilmaydi. Buning uchun yodli kaliy tabletkalari ishlatiladi. Uni birinchi hafta har kuni bir tabletkadan qabul qilish kerak. Agar tabletkalar bo‘lmasa bir stakan suvga 3-5 tomchi 5 % yod eritmasi tomizilib bir xil qismlarga bo‘lingan holda 3 mahal ichiladi.

Radiatsiyaviy ifloslanish – avariya vaqtida yadro reaksiyasiga to‘liq kirishmagan elementlar va mahsulotlar (radioaktiv chang, chiqindilar, yadro mahsuloti parchasi)dan ajralib chiqadigan alfa, beta va gamma ionlashtiruvchi nurlanish natijasi.

Agar siz radiatsiyaviy xavfli obyekt yonida yashasangiz, u haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘ling. Fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasining eng yaqin bo‘limidan, obyektida avariya vaqtida aholini ogohlantirish usullari va vositalari haqida aniq ma’lumot oling.

Avariya paytida aholi bajaradigan harakatlar tartibi haqida qo‘llanmani o‘rganib chiqing. Avariya paytida ishlatishga mo‘ljallangan vositalar zahiralari tayyorlab qo‘ying.

Avariya vaqtida bajariladigan harakatlar:

Atrof-muhitning radiatsiyaviy ifloslanishi haqida ma’lumot olgach, darhol shaxsiy muhofaza vositalarini kiying va eng yaqin panagohga boring. Agar muhofaza vositalari va atrofda panagoh bo‘lmasa xonada qolavering. Xonani yaxshilab yopib, yodli dori ichish va fuqaro muhofazasi shtabining xabarlarini eshitish uchun radioni yoqish kerak.

Agar radiatsiyaviy vaziyatning sharoitiga ko‘ra, zararlangan hududda odamlarning qolishi hayot uchun xavfli bo‘lsa aholi xavfsiz joyga evakuatsiya qilinadi.

Evakuatsiya paytida bajariladigan harakatlar.

Evakuatsiyaga shaxsiy muhofaza vositalarini tayyorlab qo‘ying.

Jomadonga faslga qarab ustki va oyoq kiyim, bir kunlik oziq-ovqat mahsulotlari, ichki kiyim, hujjatlar, pul va muhim narsalarni solib qo‘ying. Ortiqcha narsalarni olish mumkin emas. Jomadonni poleetelin plyonkasi bilan o‘rab oling. Evakuatsiya paytida xonadonni tark etish oldidan barcha elektr va gaz asboblarni o‘chiring, tez buziladigan mahsulotlarini axlatga chiqaring, eshikka esa “Kvartira № - hech kim yo‘q” degan e‘lonni osib qo‘ying.

Transport vositalari yo‘lakning yaqiniga qo‘yiladi. Transportga o‘tirguncha yoki piyoda kalonna shakllanguncha ko‘chirish komissiyasiga uchrashib ro‘yxatdan o‘ting.

Xavfsiz hududga kelguncha hamma to’liq sanitar ishlov va dozimetr nazoratidan o’tadi.

Organizmga radiatsiya ta’sirini kamaytirish yoki oldini olish uchun:

xonaga kirguncha poyafzalingizni suv bilan yuving (nam latta bilan arting), ustki kiyimingizni nam cho’tka bilan tozalang;

ochiq joyda imkon darajasida kamroq bo’ling, xonalardan chiqquncha shaxsiy muhofaza vositalaridan foydalaning;

ochiq joyda turganda yechinmang, yerga o’tirmang, yerdagi narsalarga teginmang, ovqat (biron yegulik) iste’mol qilmang, suv ichmang, chekmang;

faqat tekshirilgan zahira suvidan iching;

shaxsiy gigiyena qoidalariga qat’iy rioya qiling;

yopiq xonalarda ovqatlaning, qo’llarni yaxshilab oqar suvda yuving, og’zingizni osh sodasining kuchsiz eritmasi bilan chayqang;

mevalar, zambrug’lar, gullarni terish mumkin emas;

radiatsiyaviy ifloslanish darajalari tekshirilmaguncha ochiq suv havzalarida cho’milish yoki boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

Yuqorida keltirilgan tartiblarga rioya qilish odamning radioaktiv zararlanishining oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni. 2000 yil 31 avgust, 120-II-son.
2. O‘zbekisto Respublikasining O‘RQ-565-son “Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to‘g‘risida” gi Qonuni. 2019 yil 9 sentabr.
3. Boymirzayev A, Bakirov R, Dexqonov A. “Radioaktiv moddalar, ular bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarda qutqaruvchilarning harakatlari”. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent.: 2014 y. - 35 bet.
4. Boymirzayev A.E. “Hayot xavfsizligi va birinchi tibbiy yordam” O‘quv qo‘llanma, Toshkent.: 2019 y. “Zilol buloq” nashriyoti, 396 bet.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tonlashtiruvchi nurlanish manbalari aylanishini davlat tomonidan hisobga olish va nazorat qilish tizimini tashkil etish qoidalarini tasdiqlash haqida” 98-son Qarori 2009 yil 3 aprel.
6. Radiatsiyaviy xavfsizlik meyorlari (RXM-2006, NRB-2006)
7. Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy sanitar qoidalari (RXTASQ-2006, OSPORB-2006).